

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Vrachlar malakasini oshirish kafedrasini
BAYONNOMASI №1

08.09.2025 yil


Toshkent.

Qatnashganlar: Kafedra mudiri, dotsent Dadabayeva R.K., dotsent Maxkamova G.G.; katta o'qituvchilar: F.M.Nuriddinova, Kulkarayev A.K, Mirzabekova O.A, Ruzieva Z.I.; assistentlar: Eshmamatov O.F., Niyazova M.T., Turaxodjaeva S.S. "Oilaviy tibbiyotda ko'p uchraydigan kasalliklarni tashxislash va zamonaviy davolash" sikli tinglovchilari

Kun tartibi: Kafedrada kafedra mudiri boshchiligida kafedra hodimlari ishtirokida "Oilaviy tibbiyotda ko'p uchraydigan kasalliklarni tashxislash va zamonaviy davolash" sikli tinglovchilariga "Vatan uchun, xalq uchun, millat uchun" mavzusida asosida "Mustaqillik darsi" zoom orqali taqdim etilgan mustaqillik darsi muhokamasi

Tinglandi: Kafedra mudiri dotsent Dadabayeva R.K. barcha kafedra xodimlari va kafedrada tahsil olayotgan "Oilaviy tibbiyotda ko'p uchraydigan kasalliklarni tashxislash va zamonaviy davolash" sikli tinglovchilarini Mustaqilligimizning 34 yilligi bayrami hamda yangi o'quv yilining boshlanganligi bilan tabrikladilar. Barcha yig'ilganlarga kirish so'zi bilan bugungi o'tkaziladigan ma'rifat darsining mazmun-mohiyati haqida gapirdilar. Kafedrada ma'naviyat-ma'rifat ishlariga mas'ul, ass. Niyazova M.T. universitet rahbariyati tomonidan taqdim etilgan taqdimot, videoroliklarni barchani e'tiboriga havola etdi.

Mashg'ulotni olib borishda rahbariyat tomonidan taqdim etilgan "Kelajak soati" darsining oliy ta'lim muassalari uchun mashg'ulot ssenariysidan foydalanildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar haqidagi fikrlari keltirilgan videorolik namoyish etildi.



Vatan hissi eng muqaddas tuyg'udir. Vatan buyuk tuyg'u. Vatanni shunchaki sevish, u to'g'risida she'r yozish, qo'shiq kuydash, chiroyli gapirishgina emas. Vatanparvarlik haqida minglab asarlar yaratilgan, u haqida gapirmagan odamning o'zi yo'q. Ammo, bu bilan biz vatanparvar bo'lib qolyapmizmi?

Vatanparvarlik – har birimizning o'z tug'ilib o'sgan, kindik qonimiz to'kilgan Vatan oldidagi farzandlik, fuqarolik burchimiz, ma'naviy mas'uliyatimiz, uning taraqqiy

etishi, yanada gullab-yashnashi uchun o'zida fidoyilik hissini tuyish kabi ko'plab ma'no-mazmunni beradigan tushuncha.

Bolaning onaga nisbatan muhabbati tabiiy ravishda paydo bo'lsa, Vatanga va yurtga muhabbat uning ongiga singdirilmog'i, o'rgatilmog'i kerak

O'zbekiston respublika oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, hamda talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan mavzuga doir tayyorlangan "Bo'lar ekan-ku yoxud kechaning bugundan farqi nimada" taqdimot namoyish qilindi. Ushbu taqdimotda mamlakatimizning mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi 8-9-yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda erishgan yutuqlari tahlil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston tarixining jahon maydonida tutgan o'rni, xalqimiz tomonidan yaratilgan boy ilmiy-madaniy meros, unga turli tarixiy davrlarda bo'lgan munosabatlar o'rganilgan.

Ayniqsa, 2016-yildan boshlangan tub islohotlar, yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans asoslarini barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlar mazmun-mohiyati tahlil etilgan.

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub "Sen davlatsan, aziz vatandosh" nomli she'ri tinglovlar tomondan o'qib eshittirildi.

"Uyg'on, o'g'lim" nomli videoklip namoyish etildi. O'tkazilgan ma'rifat dasrida talabalar faol bo'ldilar.

Kafedra mudiri, dotsent Dadabayeva R.K. Mustaqilligimizni mustahkamlash, Yangi O'zbekistonni bunyod etib, jahonga tanitish yo'lida tinglovchilarga kuch va quvvat, so'nmas shijoat, o'qish hamda kelgusi hayotlarida katta muvaffaqiyatlar tiladilar.

Kafedra mudiri: dotsent.



Dadabaeva R.K.

**Ma'naviyat va marifat ishlari
bo'yicha masul:**



Niyazova M.T.